

#Monitoring



Fanlar akademiyasining 2024-yil 25-sentyabrdagi 21-97-sonli “Fanlar akademiyasi tizimida doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar monitoringini o‘tkazish to‘g‘risida”gi buyrug‘i ijrosini ta‘minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-sonli “Oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim to‘g‘risida Nizom” talablarining amaldagi ijrosini nazoratga olish maqsadida 2024-yilning 02-oktyabridan Fanlar akademiyasi tasarrufidagi ilmiy tashkilotlarda tahsil olayotgan doktorantlar va tayanch doktorantlar faoliyati monitoringini o‘tkazish boshlandi.

Monitoring jarayonida ishchi guruh hamda ilmiy rahbarlar ishtirokida 775 nafar tayanch doktorant (PhD), 85 nafar doktorantlar (DSc) bilan tasdiqlangan shaxsiy ish rejalarining bajarilishi, ilmiy faoliyatda mavjud bo‘lgan muammo va takliflar to‘g‘risida suhbatlar o‘tkazilmoqda hamda tegishli tavsiyalar berilmoqda. Doktorantlar faoliyati monitoringini o‘tkazish 2024-yilning 2-oktyabridan 18-oktyabrigacha davom etadi.

-Fizika-matematika va texnika fanlari yo‘nalishi bo‘yicha: 02.10.2024 y. – 04.10.2024 y.

-Tabiiy fanlar yo‘nalishi bo‘yicha: 07.10.2024 y. – 10.10.2024y.

-Ijtimoiy-gumanitar fanlar yo‘nalishi bo‘yicha: 11.10.2024 y. – 15.10.2024 y.

-Mintaqaviy bo‘limlar: 16.10.2024 y. – 18.10.2024 y.